



## TALABALARDA KASBIY KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH SHARTLARI

Rahmonova Nigora Abdulboqi qizi

Andijon Davlat Pedagogika instituti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi  
2- bosqich magistri

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7536514>

### ARTICLE INFO

Received: 03<sup>rd</sup> January 2023

Accepted: 12<sup>th</sup> January 2023

Online: 14<sup>th</sup> January 2023

### KEY WORDS

Tarbiya, ta'lim, kasb, malaka,  
ko'nikma, bilim, tarbiyachi,  
Ya.A.Komenskiy, Djon Lokk,  
I.G.Pestalotssi, A.Disterveg,  
K.D.Ushinskiy.

### ABSTRACT

*Mazkur maqola oliy o'quv yurtlari talabalarining kasbiy madaniyati, ko'nikmalari va kasbiy mahoratini oshirishga va rivojlantirish uchun qanday ilmiy izlanishlar olib borilganini, shu bilan birga talabalarni kasbini mutaxassisi bo'lishiga ko'mak beradi. Kasbiy ko'nikmasini oshiradi, o'z ustida ishlashini, izlanishlar olib borishlariga dasturi amal bo'ladi.*

### Kirish

O'zbekiston Respublikasi mustaqil davlat sifatida rivojlanishning yangi bosqichiga ko'tarilib borayotgan ekan ta'lim - tarbiya sohasida ham zamon talablaridan kelib chiqqan holda ish tutishni davrning o'zi taqazo qilmoqda. Ta'lim to'g'risidagi qonun va kadrlar tayyorlash dasturining qabul qilinishi shular jumlasidandir. Unda ta'kidlanishicha "Barkamol avlod jamiyat taraqqiyotining poydevoridir" [2: 14]. Yosh avlodni har tomonlama yetuk qilib tarbiyalash esa ta'lim jarayonini tubdan isloh etishni talab etadi. Respublikamiz hukumati tomonidan xalqta'limi sohasi bo'yicha o'rtaga qo'yilayotgan vazifalarni bajarish ko'p jihatdan o'qituvchiga bog'liq. Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida talim-tarbiyadan ko'zda tutilayotgan maqsadga erishish, o'quvchilarning xilma-xil faoliyatini uyushtirish, ularni bilimli, odobli, e'tiqodli, mehnatkash, ishbilarmon, barkamol inson qilib o'stirish o'qituvchi zimmasiga yuklatilgan. Xalqimizning kelajagi, O'zbekistonning istiqboli ko'p jihatdan o'qituvchiga, uning saviyasi, tayyorgarligi, fidoiyligiga, yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash ishiga bo'lgan munosabatiga bog'liq. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi hukumati xalq talimini taraqqiy ettirishga, maktablar, o'qituvchilar va talabalarning moddiy va ma'naviy ahvolini yaxshilashga alohida e'tibor bermoqda. Shunday ekan kadrlar tayyorlashda katta e'tibor berish ularni dars jarayonlarini yangi pedagogik texnologiyalar, interfaol usullar orqali tashkillashtirish yosh kadrlarning kelajakdagi faoliyatlarida albatta o'z samarasini beradi. Ya'ni hozirgi zamonaviy interfaol usullardan foydalanish orqali ta'lim - tarbiya olgan talabalar ulardan foydalana olishlari zarur.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O'qituvchilarning kasbiy mahoratlarini takomillashtirish to'g'risidagi muammolar evropa olimlari Ya. A. Komenskiy, Djon Lokk, I.G.Pestalotssi, A.Disterveg, K.D.Ushinskiy kabilarning asarlarida o'z ifodasini topgan. Jumladan, chex olimi, mashhur pedagog Ya.A.



Komenskiy o'qituvchining eng muhim xususiyatlari qatoriga bolalarni sevishi, yuksak axloqi, bilimdonligi, iqtidori, kobilyati kabilarni kiritadi va ularning mohiyatini atroflicha tavsiflab beradi.

Yan Amos Komenskiy o'z davrida tarbiyachi va o'qituvchilarning bola dunyoqarashini rivojlantirishdagi rolga yuqori baho berib, o'qituvchilik, tarbiyachilik «er yuzidagi har qanday kasbdan ko'ra yuqoriroq turadigan juda faxrli kasb» ekanligini aytadi. Muallifning fikricha, o'qituvchi o'z burchlarini chuqur anglay olishi hamda o'z qadr-qimmatini to'la baholay bilishi zarur. Ya.A.Komenskiy o'qituvchi obrazini tasvirlar ekan, uning shaxsida quyidagi fazilatlar namoyon bo'lishi maqsadga muvofiqligini ta'kidlaydi: vijdonli, ishchan, sabotli, axloqli, o'z ishini sevuvchi, o'quvchilarga, mehr bilan muomala qiluvchi, ularda bilimga havas uyg'otuvchi, o'quvchilarni, tarbiyalanuvchilarni o'z ortidan ergashtiruvchi va diniy e'tiqodni shakllantiruvchi.

I.G.Pestalotssi o'qituvchining tarbiyachining kasbiy sifatlariga baho berish bilan birga, asosan uning xalq ta'limi tarmog'ini takomillashtirishdagi roli hamda fan asoslarini egallashdagi ahamiyati va vazifalariga to'xtalib o'tadi.

A. Disterveg o'qituvchining ta'limdagi rolga yuqori baho berib, u o'z faoliyatini chuqur bilib, pedagogik mahoratini oshirib borishi o'quvchilarni qalbdan yoqtirishi natijasida yuzaga keladi deb uqtiradi. O'qituvchi va tarbiyachi bolalarning individual xususiyatlarini, qobiliyatini, faoliyatini mukammal bilishi uchun muayyan darajada psixologik bilimlarga ham ega bo'lishi kerakligini takidlab o'tgan.

Pedagog olim Djon Lokk o'qituvchi psixologiyasining eng muhim jihatlarini ishlab chiqqan. Ular orasiga mo'tadillik, g'ayrat-shijoatlilik, ehtiyotkorlik kabi hislatlarni kiritib, o'qituvchining, tarbiyachining pedagogik faoliyatidagi ro'lini asarlarida yoritib bergan. A.I.Gersen, L.N.Tolstoy, I.G.Chernishevskiy, K. D.Ushinskiy kabi rus pedagog olimlari pedagogika kasbiga hissasini qo'shgan.

## **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Mazkur maqola amaliyotga o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatining o'zaro tutashuvi, o'qitish va o'qishga qaratilgan aniq harakatlar, amallar yoki usullar majmuasi sifatida joriy etiladi. Talaba shaxsining shaxsiy sifatleri – talabaning muayyan faoliyati uchun juda muhim qobiliyatlarni to'plami bo'lib juda kasbiy faoliyatning samaradorligini oshirish. Bu sifatleri o'ziga xos xususiyatlariga quyidagilar kiradi; kasbiy fikrlash qobilyatlari, psixomotor vazifalari. Bular mehnat operatsiyalarini bajarish faoliyatida integratsiyaning juda yuqori natijasi bo'lib, mintaqaviy bozorlar bilan raqobat qila olish uchun imkoniyat yaratadi.

Kasbiy tayyorgarlik – ta'lim oluvchilarning muayyan ish yoki ishlar majmuini bajarish uchun zarur malakalarni jadal egallash maqsadini nazarda tutilgan pedagogik jarayon. Biror bir kasbiy faoliyat doirasida ishlashga imkon beruvchi bilimlar, ko'nikma va malakalarini shakllantiruvchi jarayonga aytiladi.

Talabalarda kasbiy bilimlarni shakllantirish uchun eng avvalo bilim nima degan savolga to'xtalib o'tsak. Bilim -bu eshitilmagan, o'rganilmagan, va yangi eshitilgan axborotni o'zlashtirish. Ko'nikma esa bilimni mustaxkamlash. Ko'nikma yangi egallangan axborotni qayta -qayta eshitish, va uni amaliyotida qo'llab takrorlab, qaytarish natijasida hosil bo'ladi. Ko'nikma — insonning ilgari tajribalari asosida muayyan faoliyat yoki harakatni amalga oshirish qobiliyati. Ko'nikmalar amaliy faoliyatga, bilimlarni amalda qo'llay bilishga oid



faoliyatning tarkibiy qismidir. Ko'nikma faoliyatning maqsadi va sharoitlariga mutanosib ravishda harakatni muvaffaqiyatli bajarish usullaridir. U hamisha bilimlarga asoslanadi, mahorat (malaka)ning negizi hisoblanadi. Ko'nikma mazmunan amaliy (jismoniy) va aqliy, shaklan oddiy va murakkab turlarga ajratiladi. Amaliy Ko'nikmalar mehnat faoliyatini amalga oshirishga, aqliy Ko'nikmalar bilim olishga, uni o'zlashtirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Ko'nikmalarni bilim bilan adashtirmaslik lozim, chunki bilimlar voqelik to'g'ri aks ettirilgan hukm (mulohaza)larda ifodalanadi. Ko'nikmalar esa ko'proq aqliy va jismoniy harakatlarda mujassamlashadi.[1]

Taniqli rus pedagogi K.D.Ushinskiy ta'lim-tarbiya jarayonida o'qituvchining, tarbiyachi ning ro'li va shaxsiga yuqori baho berib, tarbiyachi kasbiga oid ilmiy mulohazalarida hech bir Qonun yoki Programma, ta'lim-tarbiya to'g'risidagi metod yoki tamoyillar tarbiyachi shaxsining pedagogik faoliyatdagi mahorati o'rnini bosa olmaydi deb hisoblaydi. K.D.Ushinskiy tarbiyachi ma'naviyati va kasbiy faoliyatiga yuqori baho beradi hamda ularning kasbiy malakalarini doimiy ravishda takomillashtirib borish maqsadga muvofiq ekanligi to'g'risidagi g'oyani ilgari suradi. Mazkur g'oyaning ijtimoiy ahamiyatini tasdiqlovchi tizim o'qituvchilarni qayta tayyorlovchi kurslar tizimini tashkil etishni u ilk bor asoslab bergan.[3] Talabalar har bitta kasbni egalayotganda o'zlarini qiziqishlari va orzularini hisobga olgan holda tanlashlari kerak. Ular shundagina sidqidildan mehnat qilib yuqorida keltirib o'tilgan sifatlarni egalay oladilar. Kasbiy ko'nikma talabani sifati deb olsak, talaba bu sifadni egalayotganda ma'lum bir necha qiyinchiliklarni yengib o'tishi kerak bo'ladi. Bular o'zining tashqi va ichki odobi, salohiyati, madaniyati, ma'naviyati, aql - zakovati, dunyo qarashi shu bilan bir qatorda o'z kasbiga mohir qo'yish lozim. Talabalar amaliyotlar orqali kasbiy ko'nikmalarni hosil qiladi. Bolalar bilan ishlashda bolani shaxsini hurmat qilib, malaka ko'nikmalarini oshirishlari zarur.

Xulosa qilib aytganda o'qituvchi, tarbiyachi va murabiyalarda pedagogik mahoratni shakllantirishning ilmiy - nazariy asoslari pedagog olim V.A. Slastyonin tomonidan ham tadqiq qilingan. U kasbiy - pedagogik tayyorgarlik, tarbiyachining shaxsi va kasbiy shakllanish yo'nalishi va bunda pedagogik mahorat to'g'risida so'z yuritib, shunday yozadi: "O'qituvchi va tarbiyachilar muntazam ravishda pedagogik nazariyalarga tayansagina, tarbiyachilik mahoratini egallaydi. Chunki, pedagogik amaliyot doimiy ravishda pedagogik nazariyaga murojaat qilishni taqozo etadi. Kasbga yo'naltirish ishida iqtisodiy muammolar muhim ahamiyat kasb etadi. Kasbga yo'naltirishda, bir tomondan, turli kasblar va ixtisosliklarning mavjudligi, ikkinchi tomondan, shaxslarning qator xususiyatlari bilan farqlanishi o'ziga xos muammoli vaziyatlarni vujudga keltiradi. Umuman, ilk kasbga yo'naltirish ishlari oiladan boshlanib, atrof-muhit, ota-ona, kattalar, qo'ni-qo'shni, mahalladoshlar ham unga o'z maslahatlari, kasb-korlari bilan ma'lum ta'sirini ko'rsatadi. Kasbni to'g'ri tanlash-inson hayotidagi muhim jarayon bo'lib, u har bir shaxsning qiziqishi, mayli, imkoniyatlariga mos kelishi zarur. Yoshlarning kasb tanlashi ongli zaruriyat va ayni paytda, jamiyat manfaatlariga mushtarak bo'lishi, ulaming kamolot yo'lidagi shaxsiy talablarini qondirishi lozim. Kasb-hunar tanlashda har bir shaxs awalo nimaga qiziqishini, qo'lidan qanday ish kelishini, ya'ni nimani uddalay bilishini, tanlagan kasbi o'ziga hamda jamiyatga qanday naf keltirishini anglay bilishi zarur. Bu holatni mantiqan quyidagicha ifodalash mumkin. «Kerak-xohlayman, bilaman-uddalayman». Bir so'z bilan insoni o'zida ishonch va hohishi bo'lishi muhim.



## References:

1. I.A.Karimov "Istiqlol va ma'naviyat. – T.: "O'zbekiston", 1994.
2. I.A.Karimov "O'zbekistonning" Siyosiy - ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari" – T.: "O'zbekiston", 1995.
3. Ya. A. Komenskiy " Buyuk didaktika."– T.: "O'qituvchi", 1970. –430-b.
4. Q. OLIMOV, O. ABDUQUDUSOV, L. UZOQOVA.M. AHMEDJONOV, D.JALOLOVA "KASB TA'LIMI USLUBIYATI" Toshkent " Iqtisod -moliya" 2006 y.
5. "TA'LIM METODLARI VA VOSITALARI UNUMLI FOYDALANISH YO'LLARI" Kamola Namozboy qizi Tog'ayeva maqola.
6. Fayllar.org.[https://](https://fayllar.org/)
7. uz.wikipedia.org.[https://](https://uz.wikipedia.org/)
8. O'zME. Birinchi jillit.Toshkent - 2000y.
9. cyberleninka.ru.